



MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI



BUXORO VILOYAT
PEDAGOGIK MAHORAT
MAKRAZI



TILLARNI O'QITISH
METODIKASI
KAFEDRASI

“FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”



**MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA TO'PLAMI**

Buxoro. 20-oktabr. 2025-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

TILLARNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

**“FILOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA XORIJIY
TAJRIBALAR VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH”**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

**"ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК"**

**Сборник материалов Республиканской
научно-практической конференции**

**"THE USE OF FOREIGN EXPERIENCES AND DIGITAL
TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF PHILOLOGICAL
SCIENCES"**

Materials of the Republican Scientific and Practical Conference

BUXORO - 2025-yil, 20-oktabr

**1-SHO'BA: TA'LIM JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYA: CLIL
TEXNOLOGIYA.**

O'QITISH TIZIMIDA INTEGRATIV TA'LIM

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası professori, filologiya fanlari
doktori (DSc)

Ashurbayeva Ruqiya Kahharovna

BuxTI o'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz
tili kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: G'arb davlatlari ta'lim tizimida, aynan pedagogik jarayonda integrativlikning turli xil ko'rinishlari amalda qo'llanilishi, o'ziga xos tajriba maktablari yaratilishi va ta'lim oluvchilarning etarli darajada bilim olishida o'ziga xos tavsiyalar ishlab chiqilishida innovatsion texnologiyalardan foydalanilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, g'arb mamlakatlarida, jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitilmoqda. Mazkur tajribalar o'zbek ta'lim tizimida ham qo'llanilishi muhim.

Kalit so'zlar: maktabda ona tili ta'limi, ona tili va adabiyot, o'quv predmetlariaro integratsiya, ta'lim samarasi

Аннотация: В образовательной системе западных стран особое значение приобрело использование инновационных технологий при реализации различных форм интеграции в педагогическом процессе, создании уникальных экспериментальных школ, разработке конкретных рекомендаций по адекватному воспитанию учащихся. Кроме того, в западных странах, включая Великобританию, система образования в основном вводит интегративные предметы, в Корее и Швейцарии преподаются интегрированные предметы, в Венгрии – предметы, связанные с культурой, а в Ирландии все предметы

преподают блоками, такими как наука и технологии. Важно использовать этот опыт в узбекской системе образования.

Ключевые слова: обучение родному языку в школе, родной язык и литература, межпредметная интеграция, эффективность образования

Annotation: In the educational system of Western countries, the use of innovative technologies has acquired particular importance in the implementation of various forms of integration in the pedagogical process, the creation of unique experimental schools, and the development of specific recommendations for the adequate education of students. Furthermore, in Western countries, including the UK, the education system primarily introduces integrated subjects. Korea and Switzerland teach integrated subjects. Hungary teaches culturally relevant subjects. In Ireland, all subjects are taught in blocks, such as science and technology. It is important to apply this experience to the Uzbek education system.

Key words: teaching native language in school, native language and literature, interdisciplinary integration, educational effectiveness

Maktabda o'quvchi ayni "yoshlikda olgan bilimni toshga o'yilgan nashq kabi" bezashga fiziologik, psixologik, pedagogik jihatdan tayyor bo'lgan davrda ularga singdirilayotgan har bir bilim~malaka~ko'nikmani o'quv predmetlariaro bog'lash, o'quv predmetlari mohiyatini ijtimoiy hayotning yoki tabiatni, uning bir bo'lagi bo'lgan inson zotini o'rganishning turli qirralari deb tushuntirish kelajak avlod ongida olamni bir butun holatda "hazm qilinishi"ni ta'minlaydi. Shuningdek, maktabda o'qitiladigan o'quv predmetlarini bir-biriga yaqinlashtiradi, ularning bir-birini to'ldirishiga keng yo'l ochadi.

Muayyan fan, o'quv predmeti doirasida bo'limlararo, mavzulararo, hatto bir mavzu doirasida berilgan mashq-u o'quv topshiriqlariaro ham integratsiya bo'lmasa, ta'lim oluvchi tafakkurida assosiativ bog'liqlikni hosil qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, bir-biri bilan bog'lanmagan, o'zaro assosiativ zanjir hosil qilmagan bilimlar kishi tafakkurida uzoq saqlanmaydi: ular tezda o'chadi, ba'zan izziz yo'qolishi ham hech

gap emas. Integratsiyalashgan ta'lim tizimida assosiativlikka asoslangan kurslar, bloklar va modullarning yaratilishi A.Ignatova, V.M.Maksimova, N.M.Belyankova, I.B.Bogatova kabi rus olimlarining nomlari bilan bog'liq [6].

O'qitish tizimida integrativ ta'lim uchun hamisha innovatsiyalarga tayanishi zarurmi, degan savolga Roman Averbux, Nadejda Litvinova, Tatyana Muxlayeva kabi olimlar “yo‘q” deb javob berishadi va ta'limga tegishli (odatda, samara berib kelayotgan) an'anaviy usullar, metodlar yoki yondashuvlar innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirilganda, shuningdek, pedagogik faoliyat jarayonida ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar ta'siri inobatga olingandagina ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlash mumkinligi uqtiradilar[1;2;3]ki, biz ham integrativ ta'lim borasida shu mulohazani yoqlaymiz.

6-sinfda ona tili darslarini adabiyot o'quv predmeti bilan bog'lab o'qitish yetarlicha samara beradi. Bunda o'quvchilar uchun quyidagi topshiriqlarni tanlash o'rinli:

1-topshiriq. She'riy audiomatni diqqat bilan tinglang va she'r so'zlari tarkibidagi “x” hamda “h” harflari ishtirok etgan birliklarni jadvalga tartib bilan joylashtiring.

“x” harfi ishtirok etgan so'zlar		
<i>so'z boshida</i>	<i>so'z o'rtasida</i>	<i>so'z oxirida</i>
“h” harfi ishtirok etgan so'zlar		
<i>so'z boshida</i>	<i>so'z o'rtasida</i>	<i>so'z oxirida</i>

O'quvchilar hukmiga 6-sinf “Adabiyot” darsligi[5,22]dagi Zulfiya Isroilovanning “Sog'inib” she'rining audiomatni eshittirildi.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.
Kuz singari za'far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzuq.

Shu kunlarda bahorga zorman,

Tanxastalik ezadi ruhim.

Tanho emas, qatorda borman,

Yana neni izlaydi suqim?

Shu kunlarda bahorga zorman,

Shaffof, yorqin kuy tilar ko‘ngul.

Yaxshiyamki, qalamga yorman,

So‘zlab turar bor dilimni ul.

Shu kunlarda bahorga zorman,

O‘z bahorim kabi bemisol.

Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,

Yo no‘noq qo‘l butagan nihol.

Shu kunlarda bahorga zorman... (Zulfiya)

2-topshiriq. “x” hamda “h” harflari ishtirok etgan birliklarga “Adabiyot” darslingizdan 10tadan misol topib yozing.

3-topshiriq. “x” hamda “h” harflari ishtirok etgan birliklarning lug‘aviy ma’nosini izohlang. Gaplar tuzing.

Bu kabi topshiriqlar o‘quvchida izlanuvchanlikni tarbiyalashga, orfoepik, orfografik bilimlar hosil qilishga ko‘maklashadi.

Kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, ta’lim integratsiyasining bir necha tur va shakllarini ajratish mumkin. Masalan, 1) ta’lim tizimi va uning tarkibiy qismlari integratsiyasi; 2) ta’lim maqsadi va uning mazmuni integratsiyasi; 3) ta’lim maqsadi, uning mazmuni va usuli integratsiyasi; 4) ta’lim maqsadi, uning mazmuni, usuli va vositalari integratsiyasi; 5) ta’lim maqsadi, uning mazmuni, usuli, vositalari va ta’lim oluvchi-ta’lim beruvchi munosabatlari integratsiyasi shular jumlasidandir.

Shuningdek, ta’limda ilmiy yondashuvlar, usullar, metodlar, amaliyotlar va texnologiyalarning o‘zaro integratsiyasi (ya’ni ta’lim tizimida bixivioristik, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi); ta’lim tizimida an’anaviy va

noan'anaviy usullar integratsiyasi; ta'lim tizimida innovatsion va interaktiv metodlar integratsiyasi; ta'lim tizimida "Axborot banki" materiallari integratsiyasi kabilarni ham ajratish mumkin.

Mohiyatga qaysi tomondan yondashishga qarab integrativlikni – 1) ta'lim tizimlari va bosqichlari integratsiyasi; 2) uzluksiz ta'lim (maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta (boshlang'ich va umumiy) ta'lim; (o'rta maxsus ta'limi;) oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura); oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim) tizimi integratsiyasi; 3) muayyan o'quv predmeti mavzulariaro integratsiya; 4) ta'lim jarayonida nazariy ta'lim va uning pragmatikasi integratsiyasi; 5) ta'lim jarayonining turli ishtirokchi (ta'lim oluvchi~ta'lim beruvchi~ota-ona yoki maktab~oilah~mahalla~ta'limga bevosita tegishli (turli davlat va nodavlat) ijtimoiy-huquqiy tashkilotlar va h.)larni yagona tizimiga birlashtirish integratsiyasi; 6) ta'lim jarayonida (ta'lim oluvchiga nisbatan) ta'lim, tarbiya va intellektual rivojlantirish integratsiyasi; 7) ichki milliy ta'limning yagona global jarayonga integratsiyasi kabilar doirasida guruhlash ham o'rinli.

Maktab ta'limida omilkor va tadbirli o'qituvchining fanlararo, mavzulararo aloqadorlikka asoslangan, avvaldan o'ylab, puxta loyihalashtirilgan har bir darsi o'quvchini mantiqiy fikrlashga undaydi; dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini orttiradi; o'quvchida intellektual salohiyat, keng dunyoqarashni shakllantiradi; qobiliyatli bolaning tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Asosiysi, o'quvchini ham, o'qituvchini ham bir xillikka solib qo'yishdan uzoqlashtiradi. Ta'lim jarayonidagi o'quv predmetlari(fanlar)ni birinchi darajali yoki ikkinchi darajali deb qarash integratsion ta'limning mohiyatiga "soya tashlaydi". Zero, har bir o'quv predmeti integratsiya tamoyili asosida tashkil qilinganda samarali natija beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish shakllarini quyidagicha belgilash to'g'ri bo'ladi: 1) *o'rganilgan bilim bilan uni nutq faoliyatida qo'llash o'rtasida integratsiyani ta'minlash*; 2) *o'quvchilarda ijodiy tafakkur va og'zaki nutq pragmatikasi*

integratsiyasini ta'minlash; 3) o'quvchilarda ijodiy tafakkur va yozma nutq pragmatikasi integratsiyasini ta'minlash.

Shu o'rinda aytish joizki, integrativlikka asoslangan darslarda o'quvchilarda ijodiylik, assotsiativlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-amaliy g'oyalarini asoslash ona tili ta'limida hamon o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasida turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авербух Р.И. Интеграция учебных заведений в региональной системе образования.–СПб, 1998.–265 с.
- 2.Литвинова Н.П. Образование в условиях интенсификации экономики. – М.: Педагогика, 1989. –62 с.
- 3.Мухлаева Т.В. Потенциал интеграции в современном образовании// Образование, наука и техника: XXI век. –Выпуск 2. – 2004. – 156 с.
- 4.Musayev U. Integratsiya darajalari // Xalq ta'limi. – 2002. – № 6.–B. 5.
- 5.Mirzayeva Z.I., Djalilov K.Q. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.–22-b.
6. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (OO'MTV tasdiqlagan darslik).– Buxoro: Durdona, 2021.–445 b.
7. Yuldasheva D.N. Maktabda ona tili ta'limi muammolari// BuxDU Ilmiy axboroti. – Buxoro, 2020, № 3 (75).–268-277-b.

“GENDER TENGLIK” MAVZUSINI O'TISHDA O'SMIR YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH

Xamidov Akmal Amrulloevich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, p.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tenglik masalasi ta'lim jarayonida o'smir yoshdagi o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashning muhim omili ekanligi, gender

MUNDARIJA:

1.	Kirish. Xamidov Akmal Amrulloevich. Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, p.f.b.f.d (PhD)	4-6
1-SHO'BA: TA'LIM JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYA: CLIL TEXNOLOGIYA.		
2.	Yuldasheva D.N, Ashurbayeva R. K. O'qitish tizimida integrativ ta'lim	7-12
3.	Xamidov A.A. "Gender tenglik" mavzusini o'tishda o'smir yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash	12-17
4.	Кытина Н. И, Болмазова Е. В, Кытина В.В. Моделирование учебного процесса в условиях предметной интеграции: международный опыт (CLIL)	17-30
5.	Ubaydulla Axrorovich Kosimov. Til o'rganishda maqsadlarni ijobiy qoliplash orqali ong ostlik imkoniyatlaridan foydalanish	31-36
6.	Ubaydulla Axrorovich Kosimov. Ko'psensorli qabul	36-40
7.	Muqimova Gulnora Rashidovna. Ona tili va adabiyot darslarida integrativ yondashuvning ahamiyati	41-47
8.	Haydarov Yuldash Hazratovich. Ta'lim jarayonida integratsion yondashuvning o'rni. (Tarix va adabiyot fanlarini o'qitish misolida)	47-51
9.	Khodiyeva Yulduz Yunusovna. Integrating scamper and clil technologies in medical education: enhancing creative thinking and language proficiency	52-59
10.	Ortiqova Aziza. Shodiyeva Mahliyo. Ona tilini o'rgatishda CLIL texnologiyasini qo'llashning fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi roli	59-63
11.	Buzurukov Azbarkhuja Ulugkhuja Ugli. Interdisciplinary CLIL through project-based units: a 4cs-aligned, language-triptych approach for secondary education	63-67
12.	Boshmanova Madina To'ychiyevna. Texnologiya fanida raqamli texnologiyalarni CLIL usulida o'qitish	68-72
13.	Eshankulova Ma'mura Davlatovna. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya: tarix va tarbiya fanlari misolida	73-77
14.	Sangirova Zamira Bozorboyevna. Tabiiy fanlarni o'qitishda clil metodikasini qo'llashning afzalliklari	77-81
15.	Nishonova Durdona Olimjon qizi. Til va tafakkur sintezi: clil texnologiyasi orqali fanlararo integratsiyaning yangi bosqichi	81-87
16.	Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna. Tarbiya darslarida fanlararo integratsiya (raqamli savodxonlik, axborot	88-94